

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 18 176,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 9,6 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2025-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 109,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,1 % ga yetdi.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2026- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>15 214,0</b>	<b>18 176,9</b>	<b>109,6</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 771,6	17 677,3	109,5
mahsulotlarga sof soliqlar	442,4	499,6	114,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>14 771,6</b>	<b>17 677,3</b>	<b>109,5</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>2 821,0</b>	<b>3 304,8</b>	<b>106,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>4 873,7</b>	<b>6 037,6</b>	<b>112,7</b>
sanoat	3 345,2	4 137,0	108,2
qurilish	1 528,5	1 900,6	122,5
<b>xizmatlar</b>	<b>7 076,9</b>	<b>8 334,9</b>	<b>108,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 697,4	3 182,2	111,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 144,1	1 426,7	111,3
boshqa xizmat tarmoqlari	3 235,4	3 726,0	105,3



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 8 616,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 8,1 % ga yuqoridir.

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



## 2026- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,1	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	2,9	2,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>19,1</b>	<b>18,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>32,9</b>	<b>34,2</b>
sanoat	22,6	23,4
qurilish	10,3	10,8
<b>xizmatlar</b>	<b>48,0</b>	<b>47,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	18,3	18,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,7	8,1
boshqa xizmat tarmoqlari	22,0	21,0




2026- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 18,7 % ni, sanoat tarmog‘i 23,4 % ni, qurilish 10,8 % ni va xizmatlar sohasi 47,1 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,8 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 1,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 2,3 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 4,0 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 3,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2025- yilning yanvar-martida – 0,2 f.p.) ga ko'paydi .

## 2026- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2026-yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 106,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 18,7 %), sanoatda – 108,2 % (23,4 %), qurilishda – 122,5 % (10,8 %), xizmatlar sohasida – 108,7 % ni (47,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,8 % (18,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,3 % (8,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,3 % dan (21,0 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025-yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 109,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 114,4 % va xizmatlar sohasida – 110,8 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 11 541,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2025-yilning yanvar-mart oylarida – 9 766,9 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 65,3 % ni (2025 - yilning yanvar-mart oylarida – 66,1 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2025- yil

9 766,9

66,1 %

2026- yil

11 541,3

65,3 %

